



INNOVATSION BOSHQARISHNING MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDAGI ZAMONAVIY SHARTLARI

Ergasheva Barno Nuriddin qizi

Oriental Universiteti Iqtisodiyot va
turizm fakulteti stajyor-o'qituvchisi

Annotatsiya: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini innovatsion boshqarish va rejalashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan sanaladi. Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rahbarlik va boshqarishning yangi innovatsion usullari to'g'risida fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: boshqarish, innovatsiya, rejalashtirish, tashkilot, faoliyat, imkoniyat, tashkil etish, rahbarlik qilish, nazorat qilish, samaradorlik, ta'lim sifati, bilimdonlik, jamoatchilik, kadr.

Аннотация: Инновационное управление и планирование организаций дошкольного образования является одной из актуальных задач современности. В статье высказываются мнения о новых инновационных методах лидерства и управления в дошкольных образовательных организациях.

Ключевые слова: менеджмент, инновации, планирование, организация, деятельность, возможность, организация, лидерство, контроль, эффективность, качество образования, знания, общественность, персонал.



Abstract: Innovative management and planning of preschool education organizations is one of the urgent tasks of our time. The article expresses opinions on new innovative methods of leadership and management in preschool educational organizations.

Key words: management, innovation, planning, organization, activity, opportunity, organization, leadership, control, efficiency, quality of education, knowledge, public, personal.

Zamonaviy jamiyatda “menejment” soʻzini tez-tez eshitishimiz mumkin. Ilmiy-metodik adabiyotlarda bu tushuncha ijtimoiy, shu jumladan, taʼlim jarayonlarini boshqarish tamoyillari, usullari, vositalari va shakllari majmui sifatida talqin etiladi, menejment boshqaruv sanʼati deb ham ataladi.

Taʼlim sohasi sifati samaradorligini oshirish borasida yurtimizda ham bir qancha islohotlar olib borilmoqda. Prezidentimiz tomonidan chiqarilgan farmon, farmoish va qarorlarda hamda 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Taʼlim toʻgʻrisida”gi qonun¹da ham buning yorqin dalilini koʻrishimiz mumkin.

Rahbar taʼlim muassasasini boshqaruvi quyidagi tamoyillari asosida tashkillashtiriladi:

- pedagogik tizimni boshqarishda demokratlashtirish va insonparvarlashtirish;
- boshqarishning tizimlilik va yagonaligi;
- taʼlim tizimini boshqarishda axborotning obyektivligi va toʻliqliligi;
- yakka hokimlik bilan jamoatchilik boshqaruvining birligi.

Maktabgacha taʼlim tashkilotini boshqarish koʻp omilli jarayon boʻlib, uning bir qismi tashkiliy tuzilma, taʼlim tashkilotining umumiy madaniyati, rahbarning strategiyasi va

¹ <https://lex.uz/docs/-5013007v>



taktikasi hisoblanadi. Boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqishda, maqsadlarni belgilashda ta'lim tashkilotlari rahbarlari bugungi kunda davlatning ta'lim siyosatini, tarbiyalanuvchilar va ularning ota-onalari ehtiyojlarini hisobga olgan holda harakat qila olishlari kerak. Ta'lim va tarbiya sifatini ta'lim tashkiloti xodimlarini oqilona boshqarish, ta'lim jarayoniga tashqi va ichki muhitga mos ravishda o'zgartirishlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, shuningdek, normativ-huquqiy, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va psixologik omillar asos hisoblanadi. Zamonaviy ta'limni rivojlantirish va uni isloh qilish vazifalarini belgilashda uning sifatini ta'minlash masalalari ustuvor o'rin tutadi.

Ta'lim tizimida innovatsion faoliyatini rejalashtirishning o'zi ham bir qator tamoyillarga muvofiq amalga oshiriladi. Jumladan:

- 1) strategik (yuqori maqsad) va taktik (bir yillik joriy maqsadlar, oylik vazifalar) rejalarning ustivorligi va ustunligi.
- 2) strategik va taktik rejalarning ijtimoiy yo'naltirilganligi.
- 3) rejalashtirish obektlari va ularning zahiralarini oqilona taqsimlash maqsadida ularning muhimligi bo'yicha ajratish.
- 4) rejalarning mavjud moddiy shart-sharoitlarga mosligi.
- 5) muayyan maqsadlarga erishishni kafolatlovchi muqobil rejalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tadbiiq etishda kam xarajatlikka erishish.
- 6) rejaning iqtisodiy jihatdan asoslanishi;
- 7) rejalashtirish tizimining teskari aloqasini ta'minlash.
- 8) rejani amalga oshirishning eng qulay shaklini tanlash.
- 9) faoliyat davrini tartibga solish va uning izchilligi, ustivorligi ta'minlash.



10) tadbirlarning puxtaligini tahlil qilishga imkon beruvchi faoliyat va grafikli (yozuvli) reja tahlilini amalga oshirish.

Pedagogik faoliyat jarayonini tashkillashtirishda ishlab chiqilgan rejalarni amalga oshirish, qatnashchilar o'rtasida vazifalarni taqsimlash, ularning huquqlari va majburiyatlarini aniqlashdan iborat o'zaro bog'liq harakat mexanizmlarini belgilash maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ta'lim maqsadlarini amalga oshirish uchun sarflangan vaqt va sarflarni qayd qilish, zahiralarni sarflash puxta hisob-kitob olib borilishini talab qiladi.

Innovatsion boshqarishda maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan ijtimoiy tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro integratsiya quyidagilarda namoyon bo'ladi:

a) tashkilot rahbarlari, rahbar xodimlar, pedagogik jamoa, boshqaruv organlari, tarbiyachilar, tarbiyalanuvchilar hamda ularning ota-onalar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirish;

b) turli boshqaruv darajalari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni kuchaytirish, ya'ni maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini o'zaro hamkorlikda boshqarish – bunga ko'ra maktabgacha ta'lim tashkilotlari jamoasining barcha a'zolari qarorlarni ishlab chiqarish va qabul qilish jarayonida faol ishtirok etadi. O'zaro hamkorlikda boshqarish, eng avvalo, faoliyatni rejalashtirishni nazarda tutadi. Boshqaruv darajalari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni kuchaytirishda tabaqalashtirish, individuallashtirish, o'z-o'zini boshqarish organlarining huquq va vakolatlarini kengaytirish, talabchanlik, faoliyatning jamoaviy hamda ijodiy xususiyatini inobatga olish zarur;

c) jamoatchilik tomonidan ko'rsatiluvchi o'zaro yordam asosida vaqtinchalik ijodiy guruhlar (masalan, ilmiy-metodik kengash, ekspert hay'ati va boshqalar)ni tashkil qilish orqali boshqaruv organlari faoliyatida yuqori samaradorlikka erishish.



Boshqaruv faoliyati jarayonida boshqaruvchida, albatta, turli xil muammolar uchraydi va u mazkur muammolarni samarali hal qilish darajasi orqali uning vakolat darajasini aniqlash mumkin. Boshqaruv vakolati rivojlanishi nafaqat o'z-o'zini rivojlantirish va boshqaruvchi faoliyatida tajriba orttirish, balki boshqaruvchining malakasini oshirish, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining kasbiy qayta tayyorgarligiga bog'liq.

Butun ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun pedagog kadrlar jamoalarini boshqarishning zamonaviy usullari, ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni yaxshi biluvchi, innovatsiyalar bozorida samarali ishlashga qodir mutaxassislar kerak. Innovatsiya har bir tashkilot uchun murakkab va og'riqli jarayondir. Ammo innovatsiyalarsiz tashkilotlar, tashkilotlar va firmalar o'rtasidagi raqobat xarakteriga ega zamonaviy jamiyatda ishlash va rivojlanish mumkin emas. Zamonaviy innovatsion jarayonlar juda murakkab va muqarrardir. Ular boshqaruvning istalgan sohasida rejalashtirishni takomillashtirish, boshqaruv organlarining tuzilishi va funksiyalari, kadrlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish muhimdir.

Ta'lim tizimida innovatsion faoliyatini rejalashtirishning o'zi ham bir qator tamoyillarga muvofiq amalga oshiriladi. Jumladan:

- 1) strategik (yuqori maqsad) va taktik (bir yillik joriy maqsadlar, oylik vazifalar) rejalarning ustivorligi va ustunligi.
- 2) strategik va taktik rejalarning ijtimoiy yo'naltirilganligi.
- 3) rejalashtirish obektlari va ularning zahiralarini oqilona taqsimlash maqsadida ularning muhimligi bo'yicha ajratish.
- 4) rejalarning mavjud moddiy shart- sharoitlarga mosligi.
- 5) muayyan maqsadlarga erishishni kafolatlovchi muqobil rejalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tadbiiq etishda kam xarajatlikka erishish.



- 6) rejaning iqtisodiy jihatdan asoslanishi.
- 7) rejalashtirish tizimining teskari aloqasini ta'minlash.
- 8) rejani amalga oshirishning eng qulay shaklini tanlash.
- 9) faoliyat davrini tartibga solish va uning izchilligi, ustivorligi ta'minlash.
- 10) tadbirlarning puxtaligini tahlil qilishga imkon beruvchi faoliyat va grafikli (yozuvli) reja tahlilini amalga oshirish.

Pedagogik faoliyat jarayonini tashkillashtirishda ishlab chiqilgan rejalarni amalga oshirish, qatnashchilar o'rtasida vazifalarni taqsimlash, ularning huquqlari va majburiyatlarini aniqlashdan iborat o'zaro bog'liq harakat mexanizmlarini belgilash maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ta'lim maqsadlarini amalga oshirish uchun sarflangan vaqt va sarflarni qayd qilish, zahiralarini sarflash puxta hisob-kitob olib borilishini talab qiladi. Maktabgacha ta'lim tizimini innovatsion boshqarishdagi majmuaviylik ta'lim xizmatlarini ko'rsatish jarayonida ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy-texnik, tashkiliy, pedagogik, psixologik hamda ekologik xususiyatlarni, ularning o'zaro aloqalarini hisobga olish zarurligini anglatadi. Demak, maktabgacha ta'lim tizimini innovatsion boshqarishda demografik, etnografik, malakaviy va boshqa jihatlarni aniqlash maqsadga muvofiqdir

Maktabgacha ta'lim tizimida innovatsion faoliyat - bu tashkilot moddiy-texnika bazasini va ta'lim-tarbiyani yangilashga va rivojlantirishga imkon beruvchi yangi g'oyalar va ishlanmalarni yaratish, o'zlashtirish va tatbiq etishga qaratilgan jarayonlar majmuasi tushuniladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion menejment quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

- MT tashkiloti innovatsion faoliyat rejasi va dasturlarini ishlab chiqish;



- MT tashkilotida yangi turdagi ta'lim va tarbiya turlarini yaratish va amaliyotga joriy etish jarayonini kuzatib borish, muhokama qilish;
- tashkilot miqyosida umumiy innovatsion siyosat yurgizilishini ta'minlash;
- innovatsion jarayonlarni moliyaviy va moddiy resurslar bilan ta'minlash;
- tashkiliy tuzilma oldida turgan innovatsion muammolarni kompleks tarzida hal etmoq uchun maqsadli guruhlarini tuzish.

Innovatsion boshqarishda maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan ijtimoiy tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro integratsiya quyidagilarda namoyon bo'ladi:

a) muassasa rahbarlari, rahbar xodimlar, pedagogik jamoa, boshqaruv organlari, o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish organlari, fan o'qituvchilari, o'quvchilar hamda ularning ota-onalar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirish;

b) turli boshqaruv darajalari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni kuchaytirish, ya'ni umumiy ta'lim maktablari faoliyatini o'zaro hamkorlikda boshqarish – bunga ko'ra umumiy ta'lim maktablari jamoasining barcha a'zolari qarorlarni ishlab chiqarish va qabul qilish jarayonida faol ishtirok etadi. O'zaro hamkorlikda boshqarish, eng avvalo, faoliyatni rejalashtirishni nazarda tutadi. Boshqaruv darajalari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni kuchaytirishda tabaqalashtirish, individuallashtirish, o'z-o'zini boshqarish organlarining huquq va vakolatlarini kengaytirish, talabchanlik, faoliyatning jamoaviy hamda ijodiy xususiyatini inobatga olish zarur;

v) jamoatchilik tomonidan ko'rsatiluvchi o'zaro yordam asosida vaqtinchalik ijodiy guruhlar (masalan, ilmiy-metodik kengash, ekspert hay'ati va boshqalar)ni tashkil qilish orqali boshqaruv organlari faoliyatida yuqori samaradorlikka erishish

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini innovatsion boshqarishda pedagogik qo'llab-quvvatlashning ustuvorligi ta'lim tashkiloti jamoasi har bir a'zosining o'z ichki



imkoniyatlarini anglashlariga yordam beradi. Rag‘batlantirish muassasa jamoasining barcha a‘zolari o‘rtasida insonparvarlik g‘oyalariga asoslangan munosabatni qaror toptirish orqali amalga oshirilishi lozim. Iqtidori hamda samarali faoliyati uchun rag‘batlantirilgan pedagoglarda yanada yaxshiroq ishlash, o‘z kasbiga nisbatan fidoiy bo‘lish, o‘quvchilarga mehr ko‘rsatish hissi yuzaga kelishi tabiiy, albatta.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarini innovatsion boshqarishda pedagogik qo‘llabquvvatlashning ustuvorligi ta‘lim tashkiloti jamoasi har bir a‘zosining o‘z ichki imkoniyatlarini anglashlariga yordam beradi. Rag‘batlantirish tashkilot jamoasining barcha a‘zolari o‘rtasida insonparvarlik g‘oyalariga asoslangan munosabatni qaror toptirish orqali amalga oshirilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Dilnoza Furqatovna Xalilova. (2023). Talabalarda ijtimoiy munosabatlarini rivojlantirishga oid kasbiy kompetentligini takomillashtirishda innovatsion ta‘lim muhiti beradigan natijalar. Conferencea, 76–79. Retrieved from <https://conferencea.org/index.php/conferences/article/view/1918>
2. D Khalilova. Innovative educational environment as a factor for improving professional competence in developing social relationships in students. - Science and innovation, Volume 2 Issue 1, 2023. 412-413.
3. X.D Furqatovna. Bo‘lajak tarbiyachilarning pedagogik faoliyatiga kreativ yondashuv. PEDAGOGS jurnali, 2022/4/15.
4. Dilnoza Furqatovna Xalilova. (2023). Bo‘lajak tarbiyachilarda ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish. Conferencea, 115–117.
5. <https://lex.uz/docs/-5013007v>
6. Makhmutovna T. K., Ibragimovna T. I. Specific features of the pedagogical process focused on increasing the social activity of youth //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2020. – T. 9. – №. 6. – C. 165-171